

**SHUKUR XOLMIRZAYEV HIOYALARIDA GENDER
TENGLIKNING KO'RINISHI**

Ochilova Mohichehra Tolib qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Anotatsiya: Shukur Xolmirzayev hikoyalarining sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganish va ushbu hikoyalarning jamiyatshunoslik va tilshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyatini tushuntirish.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, gender tenglik, murojaat ifodalovchi birliklar, tilshunoslik, jamiyatshunoslik.

Ishning dolzarbliji va zarurati: SHukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchi. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega.

Ishning maqsadi: Shukur Xolmirzayev hikoyalarining sotsiolingvistik xususiyatlarini o'rganish va gender tenglikni aniqlash.

Ishda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: ishni yozish jarayonida tahliliy, qiyosiy metoddan foydalanildi.

Ishdan kutilayotgan natijalar: Shukur Xolmirzayev hikoyalarining sotsiolingvistik xususiyatlari aniq tahlillar asosida ochib beriladi. Ma'lumki, har bir davr o'z oldiga muayyan maqsad va aniq talablar qo'yadi. XX asr tilshunoslik fani F.de Sossyur asos solgan sistem tilshunoslik nomi bilan bog'liq. Bu tilshunoslik XX asrda falsafada va davrning eng ilg'or fani fizikada o'zaro aloqalari borligini ham, uni o'rganish jarayonini ham ikki bosqichi: moddiy shaklda insonga bevosita kuzatishga berilgan, ya`ni ko'rishi, sezilishi, o'lchanishi mumkin bo'lgan hodisa, yakkalik, alohidalik, voqelik oqibati va bevosita kuzatishga berilgan hodisalar ostida turgan mohiyat, umumiylilik, imkoniyat sabablarini farqlash, ulardan birini kuzatish, tajriba asosida tavsiflash, ikkinchisini esa, aqliy idrok asosida ochish bilan

uzviy bog'liq. Shuning uchun ham XX asr tilshunosligida, ya'ni strukturalizmda hozirgi kunda diskurs deb ataladigan, mohiyatan esa fikr almashinish jarayoni ikki tarkibiy qismga ajratildi.

Xulosa: Adibning adabiyot va unga munosabat bobidagi, ijodkor shaxsiyati, mas'ulyati kabi masalalardagi qarashlaridan badiiy ijod sirini bilishda ochqich sifatida foydalanish mumkin. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bir qarashda kechikkan muhabbat tuyg'ularini tasvirlayotganday tuyulsa ham, aslida qahramonlar fe'l – atvori orqali jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlarni ustalik bilan ko'rsatib beradi, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o'zaro aloqasi masalasi yozuvchi ijodiy evolyutsiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o'rinni egallaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Nurmonov.A. Ona tilim – so'lmas gulim. Tanlangan asarlar. 3 – jild. - Toshent akadem nashr , 2012. – B. 296.
2. Nurmonov. A. Tanlangan asarlar. 3jild .- Toshkent akadem nashr, 2012. – B.40
3. Ne'matov H. , Jo'rayeva. B. Sotsiolingvistika. – Buxoro,2004. – B.43 – 44.
4. Research in the Social and Human Sciences. – Paris, 1970. –P. 458.
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: ТАИ, 2004, -B. 7